

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 413 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulotov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНА	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOB

Inamov Abdusalom Muhamadovich

UBS Moliya kafedrası katta o'qituvchisi

Inomov Sardor Abdusalomovich

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrası assistenti

Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya hisobi yonalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda lizing munosabatlarini tashkil etish, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish mexanizmlari, lizingning moliyaviy barqarorlikka ta'siri, amaldagi qonunchilik talablari hamda xalqaro tajriba o'rganilgan. Tadqiqotda moliyaviy lizing, operativ lizing, qaytar lizing, agrotexnika lizingi shakllari qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga mos holda tahlil qilinadi. Shuningdek, lizing obyektlarining hisobini yuritish, amortizatsiya, foiz xarajatlari, lizing to'lovlari, balansdan tashqari majburiyatlarni aks ettirish usullari bo'yicha amaliy misollar keltiriladi. Maqolada lizing munosabatlarining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: lizing, moliyaviy lizing, operativ lizing, qishloq xo'jaligi korxonalari, asosiy vositalar, lizing to'lovlari, amortizatsiya, rentabellik, investitsiya.

Abstract. This article studies the mechanisms of organizing leasing relations in agricultural enterprises, their reflection in accounting, the impact of leasing on financial stability, current legislative requirements and international experience. The study analyzes the forms of financial leasing, operational leasing, leaseback, and agricultural equipment leasing in accordance with the needs of agriculture. It also provides practical examples of methods for accounting for leased objects, depreciation, interest expenses, lease payments, and off-balance sheet liabilities. The article develops proposals to improve the efficiency of leasing relations.

Keywords: leasing, financial leasing, operational leasing, agricultural enterprises, fixed assets, lease payments, depreciation, profitability, investment.

Аннотация. В данной статье исследуются механизмы организации лизинговых отношений на сельскохозяйственных предприятиях, их отражение в бухгалтерском учете, влияние лизинга на финансовую стабильность, действующие законодательные требования и международный опыт. Анализируются формы финансового лизинга, операционного лизинга, обратного лизинга и лизинга сельскохозяйственной техники в соответствии с потребностями сельского хозяйства. Приводятся практические примеры методов учета лизинговых объектов, амортизации, процентных расходов, лизинговых платежей и внебалансовых обязательств. В статье разработаны предложения по повышению эффективности лизинговых отношений.

Ключевые слова: лизинг, финансовый лизинг, операционный лизинг, сельскохозяйственные предприятия, основные средства, лизинговые платежи, амортизация, рентабельность, инвестиции.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi sohasida asosiy vositalarni yangilash, texnika parkini modernizatsiya qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uzluksiz investitsiyalarni talab etadi. Biroq ko'plab fermer xo'jaliklari va agrofimlar moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli texnikalarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish imkoniyatiga



ega emas. Shu bois, lizing munosabatlari O'zbekiston agrar sektorida muhim moliyaviy instrument sifatida shakllanib, ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmagan holda qishloq xo'jaligi texnikasini uzoq muddatli to'lov asosida qo'lga kiritish imkonini bermoqda.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan lizing operatsiyalarining to'g'ri aks ettirilishi korxonaning moliyaviy barqarorligi, rentabellik darajasi va kreditga layoqatligini aniqlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Lizing munosabatlari bo'yicha hisob-kitoblarning noto'g'ri yuritilishi aktivlar qiymatining asossiz ravishda oshirilishi yoki kamaytirilishi, majburiyatlarning to'liq aks ettirilmaligi, shuningdek ortiqcha yoki yashirin xarajatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tarmog'ida "Qishloqqurilishbank", "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati, tijorat banklari hamda xususiy lizing kompaniyalari faoliyatining kengayishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobida yanada aniq, shaffof va xalqaro standartlarga mos tarzda yuritish zaruratini keskin oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda lizing munosabatlari hisobi masalasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy iqtisodchi olim E.R. Yescombe lizingni, xususan davlat-xususiy sheriklik va real sektor kontekstida, kapital sig'imi yuqori bo'lgan sohalarda investitsiya resurslarini jalb etishning samarali moliyaviy mexanizmi sifatida baholab, uning asosiy ustunligi ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmasdan asosiy vositalarni yangilash imkonini berishida ekanini ta'kidlaydi. M.B. Gerrard esa lizing va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini tahlil qilar ekan, lizing munosabatlarining shaffof buxgalteriya hisobida aks ettirilishi investitsion risklarni kamaytirish va investorlar ishonchini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi.

Xalqaro buxgalteriya hisobi sohasidagi tadqiqotlarda, jumladan IFRS 16 standarti mualliflari va ularni sharhlagan olimlar tomonidan lizing operatsiyalarini "foydalanish huquqi aktivlari" va "lizing majburiyatlari" sifatida tan olish moliyaviy hisobotning haqqoniyligini oshirishi qayd etiladi. Ularning fikricha, ushbu yondashuv avval operatsion lizing sifatida balansdan tashqarida qolib kelgan majburiyatlarni oshkor etib, korxonalarining moliyaviy barqarorligini real baholash imkonini beradi. Agrar sektorga oid xorijiy tadqiqotlarda lizing mexanizmi qishloq xo'jaligida texnika va texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish hamda ishlab chiqarish tannaxsini pasaytirishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy instrument sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy olimlar qarashlarida ham lizing munosabatlarining qishloq xo'jaligidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar lizingni agrar sektorni modernizatsiya qilish, fermer xo'jaliklari va agrofimalarning investitsion imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida baholab, ayniqsa "O'zagrolizing" tizimi orqali texnikalarni yetkazib berish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganini qayd etadilar. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish korxonalarining moliyaviy natijalari, soliq yuklamasi va kreditga layoqatligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

Xorijiy va mahalliy olimlar fikrlarining tahlili lizingni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun texnik-iqtisodiy modernizatsiyani ta'minlovchi muhim moliyaviy instrument sifatida e'tirof etadi. Biroq, lizing munosabatlarini buxgalteriya hisobida xalqaro standartlar va milliy amaliyot uyg'unligida aks ettirish, ayniqsa agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurati hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda lizing munosabatlari hisobini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuv asosida sifat va miqdoriy metodlar uyg'unlashgan. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida institutsional iqtisodiyot, moliyaviy menejment hamda buxgalteriya hisobi nazariyasining asosiy qoidalari qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, mantiqiy umumlashtirish kabi umumilmiy metodlaridan foydalanildi. Lizing munosabatlarining iqtisodiy mohiyati va agrar sektordagi o'rni xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari asosida tizimli tahlil qilindi.

Empirik tadqiqotda O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarida lizing asosida foydalanilayotgan asosiy vositalar bo'yicha moliyaviy hisobot ma'lumotlari, "O'zagrolizing" AJ, tijorat banklari va xususiy lizing kompaniyalari faoliyatiga oid ochiq statistik axborotlar o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida dinamik tahlil, strukturaviy tahlil va moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili (rentabellik, aktivlar tarkibi, majburiyatlar ulushi) amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyati o'z tabiatiga ko'ra Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy, kapital talab qiluvchi va ko'p hollarda texnik resurslarga kuchli darajada bog'liq bo'ladi. Mavsumning qisqaligi, ish hajmining kattaligi hamda texnikaning yuqori qiymati agrar korxonalar faoliyatida muhim muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli lizing mexanizmi qishloq xo'jaligida oddiy moliyaviy instrument emas, balki ishlab chiqarish jarayonini boshqarishning muhim strategik vositasiga aylanib bormoqda.

Ko'plab fermer xo'jaliklari texnikaning to'liq qiymatini bir yo'la to'lash imkoniyatiga ega emas. Ayniqsa, traktorlar, kombaynlar, lazerli tekislagichlar, tomchilatib sug'orish tizimlari hamda issiqxona uskunalarining narxi yildan-yilga oshib bormoqda. Masalan, 2024-yilda bozor sharoitida o'rtacha kombayn narxi 1,2-1,5 milliard so'mni tashkil etadi. Bunday yirik xarajatlar fermerlarni jiddiy moliyaviy bosim ostida qoldiradi. Lizing esa ushbu yuklamani yumshatib, texnikani bosqichma-bosqich, ishlab chiqarish jarayonida olinadigan daromadlar hisobidan to'lash imkonini beradi.

Lizingning yana bir muhim jihati shundaki, korxona texnikadan darhol foydalanishni boshlaydi, to'lovlar esa keyingi yillarda shakllanadigan daromadlar hisobidan amalga oshiriladi. Natijada ishlab chiqarish uzluksizligi ta'minlanadi, zamonaviy va yangilangan texnika esa mehnat unumdorligi hamda hosildorlikni oshiradi. Shu tariqa, lizing qishloq xo'jaligi korxonalariga texnikani "bir vaqtning o'zida sotib olish va undan daromad olish" imkonini yaratadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, lizingning ahamiyati quyidagi jihatlar bilan yanada kuchayadi: investitsiya resurslari yetishmovchiligi sharoitida kapitalning muqobil manbai bo'lishi; ishlab chiqarish risklarini kamaytirishi; texnikani almashtirish siklini tezlashtirishi; resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi. Ayniqsa yirik fermer xo'jaliklari uchun texnika parkining eskirishi hosildorlikning pasayishi, xarajatlarning ortishi va vaqt yo'qotilishiga olib kelishi sababli lizingning ahamiyati yanada ortadi.

Qishloq xo'jaligi sektorida eng keng tarqalgan lizing shakli moliyaviy lizing hisoblanadi. Ushbu shakl fermer xo'jaliklariga asosiy vositalarni o'z mulki sifatida qabul qilish imkonini beradi. Moliyaviy lizing muddati, odatda, texnikaning foydali xizmat muddatiga yaqin bo'ladi. Masalan, 5-7 yil muddatga olingan traktor foydalanish intensivligiga qarab amortizatsiyalanadi. Moliyaviy lizingning muhim xususiyati shundaki, texnika lizing oluvchining balansida aks ettiriladi, bu esa aktivlar va majburiyatlar hajmini oshiradi, biroq korxonaning real moliyaviy holatini yanada haqqoniy ko'rsatadi va moliyaviy rejalashtirishni aniqroq amalga oshirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda moliyaviy lizing orqali asosan YTO (Xitoy) traktorlar, "New Holland" kombaynlari, "Case IH" paxta terish mashinalari, lazerli tekislagichlar, shuningdek tirkamalar va yuk tashuvchi texnikalar xarid qilinadi. Operativ lizing esa mavsumiy ishlar davrida fermerlar uchun ayniqsa qulay bo'lib, texnikani faqat zarur bo'lgan qisqa muddatda ijaraga olib, mavsum yakunlangach qaytarish imkonini beradi. Bu texnika bilan bog'liq xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ayrim hollarda korxona texnikaga egalik qilgan holda aylanma mablag' yetishmovchiligi muammosiga duch keladi. Bunday vaziyatda texnikani lizing kompaniyasiga sotib, uni lizing asosida qayta foydalanish (qaytar lizing) mexanizmi qo'llaniladi. Ushbu mexanizm aylanma kapitalni tezkor to'ldirish, mavjud texnikadan foydalanishni davom ettirish hamda kredit olish bilan bog'liq murakkab jarayonlardan qochish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi texnikalarini subsidiyalash siyosati natijasida agrotexnika lizingi tizimi shakllandi. Mazkur tizimda boshlang'ich to'lovning nisbatan pastligi (10-15 foiz), foiz stavkalarining subsidiyalanishi va ayrim texnikalar bo'yicha to'lovlarning 2-3 yilgacha kechiktirilishi fermerlar uchun lizingdan foydalanishni yanada qulay qiladi.

Lizing bo'yicha buxgalteriya hisobi iqtisodiy mazmuni aniq bo'lsada, amaliy jihatdan murakkab hisoblanadi. Moliyaviy lizingda texnika korxona mulki sifatida tan olinadi va uning boshlang'ich qiymatini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qiymat texnikaning adolatli bozor bahosi, lizing to'lovlarning joriy qiymati, yetkazib berish, montaj va ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi texnikalarida yetkazish va montaj xarajatlarining salmoqli bo'lishi ularni hisobga olish zaruratini kuchaytiradi.

Amortizatsiya masalasida paxta terish mashinalari, kombaynlar va traktorlar foydalanish intensivligiga qarab turlicha amortizatsiya usullarini talab etadi. Ko'pincha tezlashtirilgan amortizatsiya usulidan foydalanish amaliyoti qo'llanilib, bu soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish imkonini beradi. Masalan, qiymati 600 million so'm bo'lgan traktor 5 yil davomida amortizatsiyalansa, har yili 120 million so'm xarajat tan olinadi.

Lizing to'lovlari tarkibi asosiy qarz, foiz xarajatlari va qo'shimcha xizmatlardan iborat bo'lib, amaliyotda uchraydigan eng keng tarqalgan xatolardan biri barcha to'lovlarni xarajat sifatida tan olishdir. Aslida esa asosiy qarz majburiyatni kamaytiradi, foiz xarajatlari esa moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadi. Operativ lizingda texnika balansga kiritilmaydi va off-balance hisobda yuritilib, to'lovlar oddiy tartibda xarajat sifatida tan olinadi.

Lizing orqali texnika xarid qilish to'lovlarni yillar bo'yicha taqsimlash imkonini berib, korxonaning joriy pul oqimlarini barqarorlashtiradi. Hosildan olingan daromadlar bevosita lizing majburiyatlarini qoplashga



yo'naltiriladi. Yangi texnikaning yuqori unumdorligi hosildorlik va rentabellikning oshishiga olib keladi, amortizatsiya xarajatlarning ortishi esa soliqqa tortiladigan daromadning kamayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, lizing bilan bog'liq risklar – foiz stavkalarining o'zgarishi, texnikaning ishdan chiqishi, shartnoma shartlarini buzish oqibatlarini hamda import texnikalarda valyuta xavflari – mavjud bo'lib, ularni to'g'ri boshqarish va hisobga olish orqali salbiy ta'sirlarni minimallashtirish mumkin.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi korxonalarida lizing munosabatlarini qo'llash bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida texnik yangilanishni ta'minlash bilan birga ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtiruvchi eng maqbul mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Lizing tizimi moliyaviy cheklolarni yumshatadi, aylanma mablag'lar yetishmovchiligi muammosini kamaytiradi va agrar sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi korxonalarida lizing munosabatlarining joriy etilishi va izchil rivojlanishi agrar sektorning texnik, moliyaviy hamda tashkiliy salohiyatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Lizing mexanizmi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, xo'jalik subyektlari uchun moslashuvchan moliyaviy instrumentlarni shakllantirish, zamonaviy texnikaga bo'lgan ehtiyojni qondirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, lizing tizimining samaradorligini yanada oshirishda davlat tomonidan subsidiya mexanizmlarini kengaytirish, imtiyozli foiz stavkalarini qo'llash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda hisob-kitob va hisobot tizimlarini standartlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, lizing qishloq xo'jaligi korxonalarini texnik qayta jihozlash, xarajatlarni samarali boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan uzoq muddatli hamda barqaror iqtisodiy vosita sifatida qaralishi lozim. Kelgusida mazkur tizimni izchil rivojlantirish, uni hududlar kesimida kengaytirish hamda fermer xo'jaliklarining moliyaviy savodxonligini oshirish lizing munosabatlarining yanada samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Lizing to'g'risida" 756-I-son Qonuni. <https://lex.uz/en/docs/-85259?ONDATE=21.04.2021>
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'RQ-404-son Qonun. <https://lex.uz/acts/-2931253>
3. IFRS 16. Leases – Xalqaro moliyaviy hisobot standarti.
4. "O'zagrolizing" AJ. Rasmiy moliyaviy va statistik hisobotlar.
5. Axmedov A. Lizing operatsiyalarini boshqarish. – Toshkent.
6. Karimov B. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – Samarqand.
7. Soliev M.S. Agrobiznes va investitsiyalar. – Toshkent.
8. FAO. Agricultural Finance Reports. – 2022-2024.
9. Inamov A.M., Inomov S.A. Scientific Approach to the Modern Education System // Scientific Approach to the Modern Education System. 2023. Vol. 1, No. 10. P. 101-104.
10. Inamov A.M., Inomov S.A. Depreciation Methods Considered as Fixed Assets and Advantages of Using Them in Small Business Subjects // 2024.
11. Inamov A.M., Inomov S.A. International Journal of European Research Output // International Journal of European Research Output. 2023. Vol. 3, No. 1. P. 79-83.
12. Mukhamadovich I.A., Abdusalomovich I.S. Economic Impact of Leasing Relations in Small Business Entities // JournalNX. 2024. Vol. 10, No. 6. P. 111-115.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100